

TIJORAT BANKLARIDA XALQARO AKKREDITIVLAR AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI (ASAKABANK MISOLIDA)

*O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi Biznesni boshqarish
(Master of Business Administration-MBA) Banking 23-02-guruh magistranti
Inoyatova Shohida Yeltayevna*

Annotatsiya: Xalqaro akkreditivlar amayoti jahondagi ko'plab mamlakatlardagi iqtisodiy jarayonlarning tezlashishiga olib kelmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan ko'plab banklar aynan Asakabank amaliyoti ushbu tezisda amaliy tahlillar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro akkreditiv, tijorat banklari, Asakabank, tashqi savdo, moliyalashtirish, UCP 600, raqamli texnologiyalar.

Аннотация: Практика международных аккредитивов способствует ускорению экономических процессов во многих странах мира. В частности, в данной тезисной работе на основе практического анализа рассматривается деятельность банка «Асака», действующего в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: международный аккредитив, коммерческие банки, Асакабанк, внешняя торговля, финансирование, UCP 600, цифровые технологии.

Abstarct: The practice of international letters of credit contributes to the acceleration of economic processes in many countries around the world. In particular, this thesis provides a practical analysis of the operations of Asakabank, which operates in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: international letter of credit, commercial banks, Asakabank, foreign trade, financing, UCP 600, digital technologies.

Kirish

Bugungi kunda globallashuv va tashqi iqtisodiy aloqalarning jadallahushi xalqaro moliyaviy instrumentlardan unumli foydalanishni talab qilmoqda. Xalqaro akkreditivlar tovarlar va xizmatlar eksport-importida to'lovlar xavfsizligini ta'minlovchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Akkreditivlar orqali banklar mijozlar o'rtasida vositachilik qilish bilan birga, xavf-xatarlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Mazkur tezisda Asakabank misolida xalqaro akkreditivlar amaliyotining holati tahlil qilinib, uni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

Akkreditiv bu - bank tomonidan beriladigan, tovarlar yetkazib berilganidan yoki xizmatlar ko'rsatilganidan so'ng to'lovni amalga oshirish majburiyatidir. Xalqaro savdo amaliyotida akkreditivlar UCP 600 (Uniform Customs and Practice for Documentary Credits) xalqaro qoidalari asosida yuritiladi. Bu hujjat akkreditivlar bilan

ishlashda umumiy tamoyillar va standartlarni belgilaydi. UCP 600 qoidalari tijorat banklari uchun asosiy huquqiy-me'yoriy asos hisoblanadi.

Tahlil va natijalar

Asakabank so'nggi yillarda xalqaro moliyalashtirish va tashqi savdo xizmatlarini rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda. Bank tomonidan joriy etilgan akkreditiv xizmatlari quyidagi yutuqlarga erishgan:

- Eksport-import operatsiyalarida akkreditivlar ulushining ortishi;
- Hamkor xorijiy banklar sonining ko'payishi;
- Akkreditivlar asosida amalga oshirilgan bitimlar hajmining o'sishi.

Shu bilan birga, bank amaliyotida ayrim kamchiliklar ham kuzatilmoqueada. Jumladan:

- Akkreditiv ochish va hujjat aylanishi jarayonlarining nisbatan sustligi;
- Raqamli akkreditiv xizmatlarining yetarli darajada rivojlanmagani;
- Xalqaro standartlar asosidagi kadrlar yetishmovchiligi.

Dunyo bank amaliyotida elektron akkreditivlar (e-LC), Blockchain asosidagi to'lov tizimlari, SWIFT orqali tezkor akkreditiv ochish kabi usullar keng qo'llanilmoqda. Bolero, Contour kabi trade finance platformalari hujjatlar aylanishini avtomatlashtirish orqali vaqt va mablag' tejalishini ta'minlamoqda.

Asakabank uchun ham bu yo'nalishlarda akkreditiv operatsiyalarini raqamlashtirish, hujjatlarni elektron shaklda yuborish va tekshirish imkoniyatlarini joriy etish, xalqaro platformalar bilan integratsiyani kuchaytirish imkoniyatlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va yirik tijorat banklari statistikalariga ko'ra, ayniqsa, "Asakabank", "O'zmilliyybank" va "Ipoteka-bank" kabi banklarda xalqaro akkreditivlar soni va hajmi oshmoqda.

1. **2021 yilda** xalqaro akkreditivlar orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi \$1.1 milliardni tashkil etgan;

2. **2023 yilda** bu ko'rsatkich \$1.8 milliardga yetgan, bu 63% o'sishni ko'rsatadi;

3. Eng ko'p akkreditivlar Xitoy, Turkiya, Germaniya va Rossiya bilan tashqi savdo operatsiyalarida qo'llanilgan.

Tahlillar asosida xalqaro akkreditivlar amaliyotini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Raqamli akkreditivlash jarayonida e-LC tizimi orqali hujjatlar almashinushi va monitoringni avtomatlashtirish, akkreditiv jarayonlarini SWIFT tizimi orqali tezlashtirish.

Kadrlar salohiyatini oshirish ham eng yuqori omillardan bo'lib, xalqaro akkreditivlar bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish, ICC va UCP 600 qoidalalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha mutaxassislar tayyorlash.

Mijozlar uchun qulay xizmatlar yaratishda esa akkreditiv xizmatlari bo'yicha onlayn maslahat markazlarini tashkil etish, kichik va o'rta biznes uchun qulay tarif va xizmat paketlari ishlab chiqish.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish amaliyotida esa yirik xalqaro banklar bilan akkreditiv yo'nalishida strategik sheriklik, uzoq muddatli akkreditiv liniyalarini joriy etish

O'zbekistondagi xalqaro reytinglar va indekslar dinamikasi 2021-2024 yillar davomida rivojlanish strategiyasi bilan bog'liq bo'lib, bu davrda mamlakat ko'plab xalqaro tadbirdarda, jumladan investitsiya forumlarida faol ishtirok etdi. Maqsad - "O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni bajarish, bu esa xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Elektron hukumatni rivojlantirish indeksidagi reyting O'zbekistonning xalqaro indekslardagi o'rnini aks ettiradi.

Xulosa

Xalqaro akkreditivlar amaliyoti nafaqat to'lov xavfsizligini ta'minlaydi, balki mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Asakabank misolida ko'rilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya, kadrlar salohiyatini oshirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali akkreditiv xizmatlarining samaradorligini yanada oshirish mumkin. Taklif etilgan chora-tadbirlar amaliyotga tatbiq etilsa, tijorat banklarining tashqi savdodagi raqobatbardoshligi oshadi va mijozlar uchun yanada qulay moliyaviy muhit yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar
2. «O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1995-yil 26-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi «Bank va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni 1996-yil 25-aprel.
4. O'zbekiston Respublikasining «Bank siri to'g'risida»gi Qonuni 2005yil 25-aprel.
5. To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risidagi qonun O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 1-noyabrd 2019-yilda qabul qilingan.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvinining 13.04.2020 yilda ro'yxatdan o'tgan O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida 3229-sonli qarori